

Falsafa doktori (phd) dissertatsiyasida tadqiqot predmeti bo'yicha zarur ma'lumotlar

(ilmiy tadqiqotchilar uchun ma'lumot)

PhD (falsafa doktori) dissertatsiyasi doirasida tadqiqot predmeti – bu ilmiy izlanish olib boriladigan aniq hodisa, jarayon yoki munosabatlardir. U tadqiqotning diqqat markazida bo'ladi va asosiy tahlil, tajriba yoki kuzatishlar aynan shu predmetga qaratiladi.

1. Tadqiqot predmeti – bu ilmiy muammoning ichki mohiyatini ochib beruvchi real jarayon yoki hodisa bo'lib, u ilmiy tahlil va kuzatuv asosida o'rganiladi. Predmet orqali muammo chuqur anglanadi, ilmiy gipotezalar ilgari suriladi va ilmiy asoslangan xulosalar olinadi.

2. Predmet va obyektning farqi

Tadqiqot obyekti – bu kengroq tushuncha bo'lib, unda mavjud bo'lgan barcha munosabat va jarayonlar tadqiqot doirasiga kiradi.

Tadqiqot predmeti – bu aynan shu obyekt doirasida tanlangan, o'rganilayotgan aniq jihat yoki elementdir.

Masalan: Agar tadqiqot obyekti ta'lim tizimi bo'lsa, tadqiqot predmeti ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlari bo'lishi mumkin.

3. Ilmiy asoslash mezonlari

Tadqiqot predmeti ilmiy nuqtai nazardan quyidagi mezonlarga mos bo'lishi lozim:

Ilmiy yangilik – predmeti ilgari yetarli darajada o'rganilmagan yoki yangi yondashuv talab qiladigan masalani qamrab olishi kerak;

Dolzarblik – ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan aktual muammo asosida tanlanadi;

Amaliy ahamiyat — tadqiqot natijalari amaliyotga tadbqiq etilishi mumkin bo'lgan soha yoki tizim bilan bevosita bog'liq bo'ladi;

Nazariy asos – predmeti mavjud ilmiy konsepsiyalar, nazariyalar yoki yondashuvlar bilan bog'langan holda asoslanadi.

4. Tadqiqot predmeti bo'yicha metodologik yondashuv

Predmetni tahlil qilishda quyidagi metodologik usullar qo'llaniladi:

Tizimli yondashuv – predmet ichidagi elementlar o'zaro aloqada ko'rib chiqiladi;

Tahlil va sintez – predmetga oid ma'lumotlar ajratib olinadi va umumlashtiriladi;

Empirik metodlar – so'rovnoma, eksperiment, kuzatish asosida ma'lumotlar yig'iladi;

Nazariy modellash – predmet asosida gipotetik modellar yaratiladi.

5. Xulosa qilib aytganda, misol uchun Agar PhD tadqiqoti "Umumta'lim maktablarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish" mavzusida bo'lsa:

Obyekt: umumta'lim maktablari faoliyati;

Predmet: maktablarda sifat menejmenti tizimining tashkil etilishi, samaradorligi va takomillashtirish yo'llari.

Bu yerda predmet – bu boshqaruv tizimining sifati, ichki audit, monitoring, tahlil qilish kabi aniq mexanizmlar va ularning ishlash holatidir.